

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OTA-ONALAR IJTIMOIIY HAMKORLIGINING AHAMIYATI

Sharipova Gulruksor Nurkabilovna,
MTTDMQTMO instituti
dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim sifatini oshirishda ijtimoiy hamkorlikning o'rni hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglar hamkorligini yo'lga qo'yish, ularning birgalikdagi faoliyati orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy jamiyat sharoitida ota-onalarning pedagogik jarayondagi roli, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ijtimoiy hamkorlik, pedagog va ota-ona, ta'lim sifati, tarbiya jarayoni, oilaviy muhit, pedagogik hamkorlik, bola rivojlanishi

Аннотация. В данной статье рассматриваются реформы в системе дошкольного образования, роль социального партнерства в повышении качества образования, а также значение взаимодействия между дошкольными образовательными организациями и семьей. Особое внимание уделяется организации сотрудничества между педагогами и родителями, их совместной деятельности в обеспечении всестороннего развития детей. Также анализируются проблемы современного взаимодействия и пути их решения.

Ключевые слова: дошкольное образование, социальное партнерство, педагог и родители, качество образования, воспитательный процесс, семейная среда, педагогическое сотрудничество, развитие ребенка

Annotation. This article examines ongoing reforms in the preschool education system, the role of social partnership in improving educational quality, and the importance of interaction between preschool institutions and families. Special attention is given to the cooperation between teachers and parents and their joint efforts in ensuring the comprehensive development of children. The study also highlights existing challenges and possible solutions in modern educational practice.

Keywords: preschool education, social partnership, teacher-parent cooperation, quality of education, educational process, family environment, pedagogical collaboration, child development.

Kirish. Bugungi davrda mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar soha rivojlanishining ijobiy tendensiyalarini yuzaga keltirishi bilan birgalikda, ta'lim samaradorligini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim muhitini rivojlantirish, maktabgacha ta'limda ijtimoiy-pedagogik muhitni yaratish kabi murakkab muammolarni hal qilishni talab qiladi.

Respublikamiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning zamonaviy davrida maktabgacha ta'lim va umumiy ta'lim o'rtasidagi integratsiya mustahkamlandi. Maktabgacha ta'limning davlat ta'lim standarti davlat kafolatlarining bajarilishini ta'minlaydi va ta'limning birinchi bosqichi — maktabgacha ta'limda ota-onalar hamda bolalarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2026 yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-19-sonli qarorida ham maktabgacha

ta'lim tashkilotlari va ota-onalar o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatish, bolalarni zararli ta'sirlardan himoya qilish va ularni tarbiyalashda ota-onalarga psixologik va uslubiy yordam ko'rsatish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu asnoda bugungi kunda maktabgacha bo'lgan bolalik alohida, o'ziga xos ta'lim darajasiga aylandi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta'limda ijtimoiy hamkorlik masalasi bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni (2019) hamda "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (PQ-4312, 2019) maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda oila va ta'lim tashkiloti hamkorligini asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilaydi. Ushbu hujjatlarda ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish va bolani har tomonlama rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda Yevgeniya V. Rybak (2013) maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy hamkorlikning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilib, ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Mahalliy adabiyotlarda esa Sh.Shodmonova (2008) va N. Kayumova (2018) maktabgacha ta'lim pedagogikasi asoslarini yoritib, tarbiya jarayonida oila va pedagog hamkorligining muhimligini ko'rsatib o'tgan. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili maktabgacha ta'limda ijtimoiy hamkorlik bolalarning har tomonlama rivojlanishi va ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning ta'lim samaradorligiga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil hamda kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

Ma'lumotlar manbai sifatida ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va maktabgacha ta'lim amaliyotiga oid materiallar o'rganildi. Shuningdek, pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik shakllari, ularning o'zaro munosabati va bolalar rivojlanishiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'limda samarali ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish bo'yicha xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Tahlillar va natijalar. Ijtimoiy hamkorlik tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish maktabgacha ta'limning davlat talablarini amalga oshirish sharoitida maktabgacha ta'lim tashkiloti ishining mazmunini yangilashning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazaning boyitib borilishi ota-ona maqomiga ham, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogiga ham yangicha qarash shakllanishiga olib keladi. Biroq, oilalar bilan o'zaro munosabatlarga yangicha yondashuvlar nafaqat maktabgacha ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari bilan, balki umuman jamiyatda, zamonaviy oilaning qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar, bugungi ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiyaviy xizmatlariga bo'lgan talablari bilan ham belgilanadi.

Davlat tomonidan oila tarbiyasi ustuvorligining e'tirof etilishi oila va bolalar bog'chasi o'rtasidagi munosabatlarining yangilanishini taqozo etadi, ijtimoiy hamkorlik va o'zaro birgalikdagi sa'y-harakatlar hamda samarali muloqotning paydo bo'lishiga xizmat qiladi. MTTda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ota-onalarning ishtiroki doirasini kengaytirish — bu MTTning tarbiyaga qaratilgan samarali faoliyatini oshirish usulidir. Bu — maktabgacha yoshdagi bolaning to'laqonli rivojlanishi maqsadidagi ijtimoiy hamkorligidir.

MTT va oilaning o'zaro hamkorligi va hamkorlikning zaruriyati — bu ijtimoiy hayot shart-sharoitlari talabi bo'lib, har ikkalla tomonning bir maqsad ostida birlashuvi, muvaffaqiyatga intilishi barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning ota-onalarini o'zaro yaqinlashtirish o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatishning hal qiluvchi sharti bo'lib, unga ishonchli muloqot, o'zaro tushunish, birgalikdagi faoliyat orqali erishiladi. Pedagoglar va ota-onalar o'zaro bir-birini to'ldiradigan hamkorlar bo'lib, ularning munosabatlari tomonlarning tengligi, o'zaro hamjihatligi, xayrixohligi, hurmat-ehtiromi, ta'lim-tarbiyada manfaatlar mushtarakligi muhitini yaratish, muloqotga chorlashni nazarda tutadi.

Hamkorlik munosabatlarining asosiga bolalar tarbiyasiga qarashlarning hamjihatligi qo'yilgan: pedagog o'rgatmaydi, balki ota-onalar bilan birgalikda maslahatlashadi va fikr yuritadi, birgalikdagi harakatlar haqida kelishib oladi.

Ota-onalarning ko'nglini olish, ularning ishonchini qozonish, ular bilan ochiq muloqat muhitini yaratish zarur. MTTda doirasida ota-onalar va pedagoglar munosabatlarining yopiq yangi shakllariga o'tish mumkin emas. MTT bolaning to'laqonli rivojlanishi uchun yagona ta'lim makonini yaratish uchun ochiq tizimga aylanishi kerak. Pedagog ota-onalarni muloqotga chorlab, ularga bolaning yutuqlari haqida ma'lumot beradi va ochiq va ishonchli hamkorlik muhitini yaratadi. Tarbiyachi ota-onaga ularning bolada kechayotgan o'zgarishlar, mavjud muammolariga befarq emasligini his qildiradi. Ota-onalarning guruh hayotidagi ishtiroki doirasining kengayishi bolalarning bog'chada bo'lishini rang-barang qiladi.

Ota-onalar bilan hamkorlik o'rnatish uchun pedagog kommunikativ ko'nikmalarga va zarur shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak: u boshqalarning muammolariga e'tiborli bo'lishi va hamdardlik ko'rsatishi, boshqalarni tinglay olishi, xayrixoh, g'amxo'r bo'lishi kerak.

Ota-onalar bilan dastlabki muloqot davrida ularni guruh faoliyatiga qiziqtirish va bolalar bilan ishlash jarayonini jozibador shaklda ko'rsatish juda muhim. Shuningdek, turli xil tadbirlarning taqdimotini o'tkazish, bola tarbiyasi masalasi bo'yicha axborot almashish, o'tkazilgan va kelgusida rejalashtirilayotgan tadbirlarni muhokama qilish, maktabgacha ta'lim tashkiloti va guruh faoliyati, keyingi hamkorlik istiqbollari haqida ma'lumot berishdan iborat.

Ota-onalarni tarbiyaviy-ta'limiy jarayonda faol ishtirok etishga va hamkorlikka jalb qilishning samarali shakllaridan biri - uchrashuvlar, davra suhbatlari bilan o'tkaziladigan ota-onalar yig'ilishlaridir. Ular ota-onalarni jipslashtirish va ularni ta'lim-tarbiyada ittifoqchiga aylantirishga, pedagogik savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ko'pgina ota-onalar o'z farzandlari bilan muloqot qilishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishadi, chunki ular farzandlari bilan birgalikda mashg'ulotlar, o'yinlar o'ynashga, ular bilan muloqot qilishga vaqt topa olmaydilar.

Oila bilan yaqin pedagogik o'zaro ta'sir ota-onalarni pedagogik jarayonga jalb qilish, uni moslashuvchan, tabaqalashtirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Shunday qilib, pedagoglar va ota-onalar asta-sekin sog'lom, barkamol, zamonaviy jamiyat hayotiga moslashgan insonlarni voyaga yetkazishdek umumiy maqsadga ega bo'lgan hamfikrlar jamoasiga birlashadilar.

Ijtimoiy hamkorlikning eng muhim mezonlari tomonlarning umumiy manfaatlari va tengligi hisoblanadi. O'tgan asrda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalarning ma'muriyat va pedagogik jamoa bilan tengligi haqida gap bo'lishi mumkin emas edi, MTTda harakatlanish shartlari faqat ma'muriyat tomonidan belgilanar edi. Biroq, zamonaviy hayot yangi yondoshuvlarni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ota-onalar farzandlari tarbiyalanayotgan ta'lim muassasasiga o'z talablarini qo'yishi mumkin bo'lgan to'laqonli sheriklar hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi asta-sekin ochiq pedagogik tizimga aylanib, ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogik jarayonining to'laqonli ishtirokchisi bo'lish imkoniyatini bermoqda. Bunday yondashuv pedagoglar va ota-onalarga bolaga nisbatan umumiy maqsadlar, vazifalar, usullar, talablar bilan tavsiflanadigan yagona ta'lim makonini birgalikda yaratish imkonini beradi. Pedagoglar va ota-onalar o'rtasida ijtimoiy hamkorlik munosabatlarini o'rnatish g'oyasidan kelib chiqqan holda, ota-onalar maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda nafaqat hamkorlik pozitsiyasini egallashlari, balki maktabgacha ta'lim sifatini baholashni amalga oshirishga tayyor bo'lishlari kerak.

Shunga qaramay, bugungi kunda maktabgacha ta'limda pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni tashkil etishda bir qator muammolar haqida aytib o'tish joiz. Eng avvalo, bu muammolar pedagoglar va ota-onalarning o'zaro hamkorlik faoliyati, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini birgalikda hal qilishga tayyorligi bilan bog'liq bo'lgan muammolardir.

Ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari bilan o'zaro, ijtimoiy hamkorlikka asoslangan munosabatini tahlil qilish asosida shuni ta'kidlash lozimki, afsuski, zamonaviy ota-onalarning aksariyati ushbu vazifalarni amalga oshirishga tayyor emas yoki yetarli darajada bilimlarga ega emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori. – Toshkent, 2019.
3. Ribak Ye. V. Realnost i perspektivi razvitiya sotsialnogo partnerstva v sovremennom detskom sad-u / Ye. V. Ribak //Detskiy sad: teoriya i praktika. — 2013. - No 10. — B.16–22.
4. Sh.Shodmonova "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" O'quv metodik qo'llanma. – Toshkent, 2008 y.
5. N.Kayumova "Maktabgacha pedagogika" O'quv qo'llanma. // Toshkent 2018y.

